

LINGVOMADANIY BIRLIKLARDA RAMZ IFODASI

Nazarova Gulzoda

TerDU Lingvistika (o'zbek tili)2 bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada tillararo lingvomadaniy birliklarda ramz ifodasining namoyon bo'lishi, uning xalq og'zaki ijodi va adabiyotida qo'llanishili masalalari muhokama etiladi.

Kalit so'zlar: ramz, til, semantika, madaniyatshunoslik, lingvomadaniyat, xalq og'zaki ijodi, lingvopoetika

KIRISH

Til - bu xalq madaniyatini tushunishda ramziy boshqaruvchi, leksika esa u his-tuyg'ularga boy ifodadir. Bilamizki, insoniyat taraqqiyoti tarixida vujudga kelgan turli madaniyatlarning o'zaro ta'siri va bir-birini boyitishi masalalari ham madaniyatshunoslik fani doirasida qolaversa, insoniyat hayotining turli tomonlari bilan bog'liq madaniy tushunchalarni yaxlit holda, bir tizim sifatida o'rganadi.

Madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan esa, xalq og'zaki ijodi janrlarining badiiy-estetik ahamiyati va mahalliy xalq turmushidagi roli, ijtimoiy vazifasi ma'naviy meros sifatida ahamiyat kasb etadi. Ma'lumotlarda keltirilishicha, "Lingvomadaniyatshunoslik" atamasi V.N.Teliya boshchiligidagi tilshunoslik maktabida olib borilgan ishlar natijasida vujudga kelgan¹.

ADABIYOTLAR SHARHI

Lingvomadaniyat - zamonaviy tilshunoslikning yo'nalishlaridan biri bo'lib, tilshunoslik va madaniyatshunoslikning tutashgan qismini o'rganadigan soha hisoblanadi. Til mentalitet, an'ana va odatlarni hamda o'ziga xos olamni tushunish usulini aynan til orqali qabul qiladigan insonni shakllantiruvchi quroldir. Madaniyatning bir tomonlama tilga ta'siri yoki tilning madaniyatga ta'siri g'oyalari til va madaniyatning o'zaro bog'liqligi va aloqasi, ularning ontologik birlik ekanligini tasdiqlashga yordam beradi. Til va madaniyatning o'zaro aloqasi mohiyatini anglab yetish uchun "madaniyat" tushunchasini aniqlashtirib olish lozim bo'lar ekan². Hozirgi kunda insonlar, xalqlar, mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, madaniy hamda ilmiy aloqalar, halqaro-madaniy kommunikativ jarayonlar tilshunoslik sohasida tillarning o'zaro munosabati va til madaniyati hamda tilning milliy, o'ziga xos

¹ Jo'raeva M.M, Xamidova M.X. Lingvokulturologiya va lingvokulturema. Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti. 2019/4 (76). 112.

² Amanova M.O. Lingvomadaaniyatshunoslik fanining tarixiy va nazariy negizlari. - www.oriens.uz - T, 2021

ko'rinishi kabi qator va madaniyatshunoslik o'rtasidagi alohida spesifik yo'nalishi va predmetiga ega bo'lgan yangi soha - lingvomadaniyatshunoslikning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. XX asr oxiriga kelib, til va madaniyat muammosini o'rganishni maqsad qilgan - tilshunoslikning yangi sohasi lingvokulturologiya jadal rivojlandi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Lingvokulturologiya filni madaniy fenomen sifatida tadqiq etadi. Bu esa olamni milliy til oynasi ortidan ko'rish demakdir. Ushbu jarayonda til alohida milliy ichki dunyosi ifodasi sifatida ko'zga tashlanadi. Lingvokulturologiya ko'proq afsona, rivoyat, marosim, rasm-rusumlar, odatlar, madaniy ramzlarni va boshqalarni o'rganadi³. Bu tushuncha madaniyatga tegishli bo'lib, ular turmushi, rasm-rusumlar ko'rinishlarida hamda tilda mustahkamlanadi. Lingvokulturologiya til va madaniyat aloqadorligini o'rganuvchi fan sifatida tushuntiriladi. Uning asosiy maqsadi - xalqning ichki olami va madaniyatini til orqali kashf etishdir.

Lingvokulturologiya "tildagi madaniyat omili va insondagi til omilini o'rganishga qaratilgan" (V.N.Teliya) fandır. Lingvokulturologiya sohasiga XIX asrda V. Fon Gumboldt o'zining "Tilning tuzilishi va insoniyat ma'naviy rivojiga ta'siri" kitobi bilan tamal toshini qo'ygan bo'lib, til va millat xususiyatlarining munosabatlari haqida kayd etgan. Ayniqsa, uning "turli tillar, o'z xususiyatlari, fikrlash va his-tuyg'uga ta'siriga ko'ra amalda turlicha dunyoqarashni ifodalaydi", "tilning o'ziga xos xususiyatlari millatning o'zligiga ta'sir qiladi, shuning uchun filni chuqur o'rganish tarix va falsafa insonning ichki dunyosi bilan bog'lab tushuntiradigan barcha narsani qamrab olishi kerak" kabi fikrlari keng tarqalgan. Shunday qilib, olim tilning turli shakllarida turlicha hissiyot va tafakkur uslublarini ko'radi. Demak, tilda madaniy o'ziga xoslik aks etib turadi, degan xulosaga keladi⁴.

Tilimiz rivojiga oid muhim tarixiy hujjatda belgilangan "O'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash" maqsadi o'zbek tilshunoslari oldiga hal qilinishi lozim bo'lgan bir qator vazifalarni qo'ydi. O'zbek tilini yuksalishiga hamda tilimiz rivojiga munosib hissa qo'shishda o'zbek lingvomadaniyatida ramz tushunchasini o'rganish bugungi o'zbek tilshunosligining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

O'zbek lingvomadaniyatida ramz tushunchasini ifodalanishini yoritib

³ Jo'raeva M.M. Fransuz va o'zbek ertaklarida modallik kategoriyasining lingvokognitiv, milliy-madaniy xususiyatlari. Aftoref. Fil.fan.dok.diss. -T., 2017. B35-39

⁴ Saidova M., G'ozieva U. Lingvokulturologiya. - Namangan, 2017. - 127 b.

berish maqsadida ramz tushunchasi haqida fikr yuritishni lozimdir.

Ijtimoiy muloqot tizimida insonlar mazkur jamiyat, guruh va ijtimoiy muhitda qabul qilingan ramzlardan foydalanmasdan yashay olmaydilar. Insonni hayvondan farqlovchi jihatlardan biri - uning ramzlashtirishga bo'lgan ehtiyojidir. Zamonaviy antropologiyada B. Franklining (*toolmaking animal*) formulasi biroz o'zgartirilib, "inson o'zining tabiatiga ko'ra (*symbolmaking animal*), ya'ni inson nafaqat "mehnat qurollari ishlab chiqaradigan", balki "ramzlar yaratadigan" mahluq hamdir", deb talqin qilinadi. Demak, yuqoridagi fikrlardan ta'kidlab turibdi-ki, borliq, dunyo ramzlardan iborat, ramzlar esa borliqning, insoniyatning ilk haqiqiy ijodidir.

"Ajdodlarimiz bugun ibtidoiy davr deb baho beriladigan paytlarda bizga qaraganda yuz karra shoirroq edilar. Ular albatta, poeziyani tushunmasdilar, biroq bugungi til bilan aytganda, o'sha minglab yillar avval ularning tafakkur tarzi "poetik mushohada" tarzida edi: ular hayotlari va tabiatdagi har bir narsani tasavvur qilgan tushunchalarning ramzi sifatida qabul qilardilar. U paytlar osmon, suv, ko'kat, quyosh, oy yorug'lik va zulmat - Tangrilar edi; quyosh o'rnini tun egallarkan, ezgulik va yovuzlik kurashi ketyapti deb o'ylashardi. Hayvonlar ham tangrilar edi, ularning ichida ham yoquz va ezgu niyatilari bor edi. Ezgulik tangrilari osmonda, yer yuzida yoruqlik bilan yashashadi, yovuzlik tangrilari yer ostida, zulmat bilan birga yashashadi deb o'ylardilar".

Ramz tushunchasi qator fanlar nuqtaiy nazarida turlicha talqin qilinadi:

- 1) ramz - belgi bilan o'xshash tushuncha (fillarni sun'iy formallashtirishda);
- 2) hayotni san'at vositasida obrazli o'rganishning o'ziga xosligini ifodalovchi universal kategoriya (estetika va san'at falsafasida);
- 3) muayyan madaniy ob'ekt (madaniyatshunoslikda, sotsiologiyada va boshqaijtimoiy fanlarda);
- 4) ramz belgi bo'lib, uning dastlabki ma'nosidan boshqa ma'no uchun shaklsifatida foydalaniladi (falsafa, lingvistika, semiotika va h.k.).

Lingvokulturologiyani ramzning belgilik jihati qiziqtiradi. Agar oddiy belgi insonga ma'nolarning predmetlar olamiga kirish imkoniyatini bersa, ramz ma'noviy munosabatlarning predmetlar mavjud bo'lmagan olamiga kirish imkoniyatini beradi. Ramzlar orqali bizning ongimizda kishilarni yagona etnomadaniy hamjamiyatga birlashtiradigan madaniyatning eng muqaddas qirralari ochiladi, aqlga sig'maydigan, g'ayrushuriy botiniu ma'nolar yuzaga chiqadi. Ramzni o'zining o'ziga xos belgisi, ob'ekti, predmeti bilan aloqasini yo'qotgan ma'no sifatida qabul qilishidadir.

Ramzga eng yaqin yondoshuv hodisalardan biri metoforadir. Metafora (*yun.ko'chirish*) hosila ma'no yuzaga kelishi, u biror predmet nomini boshqa predmetga o'xshashligini e'tiborga olib ko'chirishdir. U o'xshatishning qichqargan shaklidir. Metafora nafaqat qisqargan o'xshatish, shu bilan birga, qisqargan qarama-qarshi hamdir. Metafora tildagi universal hodisa bo'lib, uning universalligi makonda va zamonda, til qurilishida hamda uning vazifalarida namoyon bo'ladi. Metafora o'zida fundamental madaniy qadriyatlarni aks ettiradi.

XULOSA VA MUNOZARA

O'zbek lingvomadaniyatida ramzlar turli holatlarda, asosan o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalarida, folklorning turli janrlarida, o'zbek adabiyotida tahlil etilgan, hamda o'rganilgan.

Kuzatuvlar va ko'pgina tadqiqotlarni tahlillar qilish natijasida o'zbek lingvomadaniyatida ramz tushunchasi turli usullar bilan, tasviriy ramzlar, hayvon ramzlari, rang ramzlari, belgili ramzlari, qush ramzlari, daraxt va o'simlik ramzlari orqali ifodalanilishiga amin bo'lindi.

Ramz bu jihatdan bitmas-tuganmasdir. O'zbek lingvomadaniyatida ramz tushunchasini qanchalik tushunishga ko'p urinmaylik, uning chuqur va ochilmagan ma'nolari oydinlashaveradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Amanova M.O. Lingvomadaaniyatshunoslik fanining tarixiy va nazariynegizlari. - www.oriens.uz - T, 2021
2. Jo'raeva M.M, Xamidova M.X. Lingvokulturologiya va lingvokulturema. Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti. 2019/4 (76). 112.
3. Jo'raeva M.M. Fransuz va o'zbek ertaklarida modallik kategoriyasining lingvokognitiv, milliy-madaniy xususiyatlari. Aftoref. Fil.fan.dok.diss. -T., 2017. B35-39
4. Saidova M., G'ozieva U. Lingvokulturologiya. - Namangan, 2017. - 127 b.
5. Saidova M., G'ozieva U. Lingvokulturologiya. - Namangan, 2017. - 209 b.